

Ossuariylar tarixiy manba sifatida

Idrisov Imalatdin Regan uli

Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi,

Salamat Arepbaevich Sulaymanov

Tarix fanlari doktori, dotsent.

Annaotatsiya: Maqolada zardushtiylik dinining dafn etish marosimi an'analari - marxumlar suyaklarini ossuariylarga solib dafn qilish haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Zardushtiylik, ossuariy, naus, Kuyukqal'a, Chilpiq, nekropol, Mizdaxqon, To'k qal'a, Qoyqirilgan qal'a.

KIRISH:

Odamzot o'z faoliyati davomida har xil e'tiqod va qoidalarga amal qilib yashab kelgan. Qadim zamonalardan to bugunga qadar ularning e'tiqodlari sonini aniq aytib bo'lmaydi hattoki ularning ko'pchiligi bizga noma'lum. Eramizdan avvalgi VI asrda esa ilk yakka xudolik tartibidagi din zardushtiylik dini yuzaga keldi. Bu dinning eng o'ziga xos tarafi esa bu marhumlarni dafn qilish an'analari bilan bog'liq edi.

Zardushtiylarda o'likni yerga dafn etish man etilgan. Bunda ular "Ona yer muqaddas, u barcha jonzotning boquvchisi, tuproqning tarkibini buzmaslik kerak", degan aqidaga rioya qilishgan. Shuning uchun ham har bir qish-loq, tuman, shaharda, tog' yon bag'ri yoki baland tepalikda maxsus supalar yasab, o'likni o'sha yerga eltib barahna (yalang'och) tarzda qo'yishgan. O'limtikxo'r hayvon va parrandalar murda go'shtlarini yeb ketgach, suyaklarini yig'ishtirib olib, alohida joyda asrashgan. Ba'zi qavmlarda o'lik kuydirilib, kuli yig'ishtirilib, e'zozlab asralgan. Jamoada ajdodlar ruhini avaylab, ana shu suyaklarning ba'zi qismini, kulni saqlash maqsadida qopqokli xumga o'xshatib ossuariylar — suyakdonlar yasashgan. Olar loydan kulollar tomonidan kesma naqshli tarzda yasalib, maxsus



xumdonlarda pishirilgan. Ular turli hajmda bo'lgan. Bosh suyaklar saqlanadigan ossuariylarning qopqog'i tutqichiga marhum kallasining tasviri tushirilgan. Ossuariy o'ta mukammal ishlangan.

Ossuariy, ostodon (lotincha os — suyak) — zardushtiylik diniga mansub xalqlarda marhumning suyagi solingan sopol, tosh yoki ganch idish, suyakdon. O'rta Osiyo xalqlarida ossuariyga solib ko'mish odati miloddan avvalgi bir ming yillikning birinchi yarmida shakllanib, milodiy VIII asrgacha (islomiy dafn rusumlari qabul qilinguncha) davom etgan. Xorazmdan topilgan qadimiy ossuariylar haykallar shaklida bo'lib, o'liklarni ilohiylashtirishni ifodalagan. O'rta Osiyo, Eron, Falastin, Misr va boshqa joylardan ko'plab ossuariylar topilgan.

Zardushtiylik dini bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi nuqtai nazaridan olib qaraganda ham juda ko'p sonni tashkil qiladi. Qoraqalpog'iston hududidan topilgan ossuariylar juda xilma xil va o'zgacha an'analarni o'z ichiga oladi.

Ossuariylar eng qadimiy dasturlarni o'rganish, qadimdag'i tarkibiy sanaatning nozik qirralarini aniqlashda ko'maklashadi. Qoraqalpog'iston ko'lamida odam suyaklari bo'lgan ossuariylar yerga kómilgan, yoki maxsus yer osti joylariga - nauslarga qo'yilgan. Amudaryo (Shilpiq), Xojayli (Nozlimxansuluv), Nukus tumani (Tok qal'a), Amudaryo (Qubatov), Bo'zatov (Kuyukqal'a) tumanlarinda ossuariy kómilgan eski maqbaralar bor. Bunday o'rinnlar shu jumladan Ustirt platosida, Qaratov shodalari, Bo'rliotov va boshqa hududlardan qazip tadqiq etilgan. Masalan: Qadimiy zardushtiylik yodgorligihisoblangan Chilpiq 15 metr balandliktagi 65 metr diametrga ega tomsiz yumaloq minora bo'lib, Nukusdan 43 km masofadagi tabiiy tepalikning cho'qqisinda joylashgan. O'lik qoldiqlari minora ichida yovvoyi qushlar va hawvonlarga yem uchun qoldirilgan. So'ng, suyak qoldiqlari ossuariylarga to'planib, yerga ko'milgan. Dastlab, minora tomdan pastga tushgan 20 metrli narvon bilan boshlangan. Minoraning asosiy qismidan daryo tomonga dahliz tushgan. Minora va uning atrofida loy taxtaychalar va tosh ossuariylar topilgan bo'lib, ularning aksariyati bugun Nukus va Toshkenttagi muzeylarda saqlanib kelinmoqda.

Chimboy tumnidagi Kuyukqal'a yodgorligidan 2 km g'arbda esa Qusxanatovning janubida Kuyukqal'a bilan bir davrga oid bo'lgan ulkan ossuariy daxmasi topildi. Bu yerda alebastradan odamlarning go'shti etidan tozalangan suyaklari ko'milgan. Ossuariylar uchun alebastr shu joyning o'zida kristall gipsning plitalarini bo'laklarga ajratib va kuydirib olinadigan bo'lgan. 2000 yilda Nukus davlat pedagogika institutining ekspeditsiya otryadlari M. Mamabettullayev rahbarligida Kuyukqal'a nekropolida tadqiqot ishlarini olib bordilar. Afsuski, mintaqaning ekologik o'ziga xosligi va keskinligi sababdan nekropol maydoni to'liq saqlanib qolmagan. Shunga qaramay nekropol shimolida tadqiqotlar davomida birqancha ossuariylar qoldiqlari topildi. 2003-2005-2006 yillardagi tadqiqotlar natijasida esa shahar nekropolining maydoni umumiy maydoni 6,58 hektarni tashkil qilishi aniqlandi.

Zardushtiylik diniga tegishli yana bir ajoyib yodgorlik Xojayli tumanodagi Mizdaxqon arxeologik kompleksi sanaladi. Mizdaxqon nekropoli - shahar markazidan 7-8 km g'arbda joylashgan bo'lib umumiy 200 hektar maydonni bant qilgan. Bu yerda juda qadimgi davrlarga oid qabrler topib tadqiq qilingan. Hatto ularning ayrimlarining yoshi 2400 yil deb taxmin qilinadi.

Nukus tumani hududidagi To'k qal'a yodgorligida 1959-1962-yillarda O'zbekstan Respublikasi Ilm-fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filialiali tarix, til va adabiyot instituti arxeologiya va etnografiya sektori xodimlari tomonidan A. V. Gudkova boshchiligidagi qazish ishlari olib borildi. Yodgorlikning shimoliy-g'arbiy bo'limalarda ikkita davrga tegishli dafn qilish an'analari ko'rindi. A. V. Gudkovning ko'rsatishisha ossuariylarga dafn qilish VII-VIII asrlarga qadar davom etgan. Tokqal'a dan topilgan ossuariylar Vendidatning oltinchi fargardasiga mos tosh yoki alebastradan ishlangan.

To'rtko'l tumanidagi Qoyqirilgan qal'ani qazib tadqiq qilgan A.Yu. Rapoport M.G. Vorobyova va boshqalar bu ulkan qo'rg'on yoki sulola markazi deb taxmin qilgan edi. Qoyqirilgan qal'ani cherkov, Xorazmshohlarni va oqsuyaklarni dafn qilish joyi - daxma, muqaddas e'tiqod o'rni deb ham tan olingan.



Qal'a ustidan va uning atrofidan marhumlarning suyaklarini solib saqlaydigan loydan ossuariylar saqlaydigan loydan ishlangan ossuariylar topilgan. Ossuariylar usti qopqoqlari odam suyaklari bilan bezatilgan. Ularni maxsus joylarda saqlab ruxlariga e'tiqod qilgan, diniy marosimlar o'tkazgan.

Umuman olganda har xil hududlardan topilgan ossuariylarning hajmi, shakli bir-biriga juda yaqin. Ularda ayrim farqlarni topishimiz ham mumkin. Masalan Chilpiq va Mizdazqonda asosan alebastra va loydan tayyorlangan bo'lsa, To'k qal'adagi ossuariylarni taylorlashda alebastra, shilta loy jo'rligida toshdan ham ishlov berilgani e'tiborni jalb qiladi. Aytib o'tishimiz zurur, zardushtiylikning diniy dasturlarida iyt eng mo'jizali hayvonlardan bo'lib, ularning o'limi odam o'limi bilan bir qatorda hisoblangan va ularga sig'inilgan. To'k qal'a va Mizdaxqon kompleksidan topilgan ossuariylarda iytlarning suyaklari va ularning devorlardagi rasmlari fikrimiz dalili bo'ladi. Xalq orasida iyt haqida tarqalgan rivoyatlar ushbu davrga, ya'ni islomga qadar zardushtiylikga tan faktlar ham bor. Izlanishlardagi bunday farqlar biz ta'kidlagan ossuariylarning hali ochilmagan ko'plab sirlari mavjudligini tastiqlab turadi. Demak, ossuariylar Qoraqalpog'iston hududidagi ko'plab tarixiy izlanishlarda katta manba vazifasini bajaradi. O'tgan davrdagi izlanishlarda bo'lgani kabi oldindagi vaqtarda ham arxeolog olimlar hududimizning qadimiylar davrga tegishli tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida ossuariylarga yuzlanishi so'zsiz.

Adabiyotlar:

1. F.Хожаниязов "Қарақалпақстандағы мұқаддес орынлар" - Нөкис - 1994 [4-12- betler]
2. F.Хожаниязов, Ж.Хакимниязов "Қаралапақстанның әжайип жети естелиги" Нөкис -2004 [11-29-betler]
3. А.В Гудкова " Ток - кала" Ташкент - 1964
4. Ж.Турманов " Куюккала" Самарканд -2010 [58-71 betler]
5. Авесто Аскар Махкам аудармасы Тошкент - 2001

